

SOG'LOM AVLOD TARBIYASIDA MILLARLARARO HAMJIHATLIKNING
O'RNI

Sharafatdinova Malika Berdaq qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va Jurnalistika fakulteti 2-
bosqich talabasi

Annotatsiya: Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq sog'lom avlod tarbiyasini eng ustuvor vazifa deb belgilandi. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mustaqil vatanimizning birinchi ordeni «Sog'lom avlod uchun» deb atalgani, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasining tashkil etilishi fikrimiz tasdig'idir. Ushbu maqolada yurtimizdagi sog'lom avlod tarbiyasining muhimligi hamda unda millarlararo hamjihatlikning o'rni haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jamiyat, yoshlar tarbiyasi, Sog'lom avlod, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyat, alqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, atanga sadoqat, do'stlikka ishonch.

Аннотация: С первых лет нашей независимости воспитание здорового поколения было определено как высший приоритет. Вопрос воспитания зрелого поколения поднялся на уровень государственной политики. Подтверждением нашего мнения является то, что первый орден нашей независимой Родины получил название «За здоровое поколение» и создание международного благотворительного фонда «За здоровое поколение». В данной статье говорится о важности воспитания здорового поколения в нашей стране и роли в этом солидарности поколений.

Ключевые слова: Общество, образование молодежи, Здоровое поколение, высокий интеллектуальный и духовный потенциал, развитая информационная система, Интернет, средства массовой информации, реклама, лояльность к сообществу, доверие к дружбе.

Abstract: From the first years of our independence, education of a healthy generation has been defined as the highest priority. The issue of raising a mature generation has risen to the level of state policy. The fact that the first order of our independent homeland was named "For a healthy generation" and the establishment of the "For a healthy generation" international charity fund is a confirmation of our opinion. This article talks about the importance of raising a healthy generation in our country and the role of intergenerational solidarity in it.

Key words: Society, youth education, Healthy generation, high intellectual and spiritual potential, advanced information system, Internet, mass media, advertising, loyalty to the community, trust in friendship.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz

deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o'z tasdig'ini topmoqda.[1]

Sog'lom avlod deganda, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga, ruhi, fikri sog'lom, imone'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlod tushuniladi. Buyuk davlatni faqat sog'lom millat, sog'lom avlodgina qura oladi. Lekin sog'lom avlod tarbiyasi oson ish emas. U har bir inson, har bir oila va jamiyatdan jiddiy e'tibor va uzluksiz mehnat talab qiladi. Bolalar organizmi muayyan qonuniyatlarga asoslangan holda o'sib, rivojlanib boradi. Bola o'sib, rivojlanish jarayonida ma'lum bir davrlarni boshidan kechiradi. Har bir davr boladagi o'ziga xos anatomok-fiziologik xususiyatlar bilan ta'riflanadiki, ushbu xususiyatlar jamlanib bola organizmining reaktiv xossalari va qarshilik qilish qobiliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu esa o'z navbatida turli yoshdagi bolalarda aniq bir kasallikning o'tishiga va patologik jarayonlarning o'ziga xos kechishiga olib keladi.[2]

Yangi O'zbekistonning kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari taraqqiyoti davrida, asriy ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning tarixiy tajribalaridan to'g'ri foydalanib, ularning ibratli ishlaridan saboq olish mamlakatimizda fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishga, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi.[2]

Yoshlar dunyoqarashida milliy- ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlariga tayanib yashashga o'rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib, mamlakatning o'ziga hos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir. Bundan tashqari, milliy- ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.[3]

Jamiyatda yoshlar tarbiyasi muammolari har doim kunning birinchi darajali mavzularidan biri bo'lib kelgan. Ayni paytda, dunyoda globallashuv jarayoni tezlashmoqda. Dunyo xalqlari, davlatlar o'rtasida o'zaro aloqalar kuchaymoqda. O'zbekiston ham undan chetda turgani yo'q. Turli xalqlarga xos bo'lgan qadriyatlar O'zbekiston yoshlari hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muhit xalqaro axborot tizimi, internet, OAV, reklama, turli xil kino ko'rsatuvlari bilan bog'liq asarlar yoshlar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatishi, turli xil qadriyatlarning kirib kelishiga sharoit hozirlaydi.

Yosh avlodni komillikka etaklovchi eng katta kuch — bu kitob va hayotiy saboqlardir. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash kelajakni, millatni va milliyligimizni boqiy ozod holda ko'rishimiz mumkin. Vatanga sadoqat, do'stlikka ishonch, oilaga mehr-muhabbat, kattalarga hurmatda kichiklarga izzatda bo'lish tuyg'usini shakllantirish milliy qadriyatlarimizni asl ko'rinishidir. Insonga faqat dunyoda yuz berayotgan voqelik haqida, odob-u axloq qoidalari, mehr va sadoqat tushunchalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lib qolmaydi. Balki, unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrofmuhitga, mehnatga, kasbga, ilmga, qalban va ruhan o'zga insonlarga mehrlil va oqibatli bo'lish tuyg'usini uyg'otishga, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga va atrofida yuz berayotgan hodisalarga o'z munosabatini bildira olishiga erishishimiz lozim. Yosh avlodni shu xislatlar bilan voyaga etishlari uchun esa turli yo'llar: kattalarni o'git va nasihatlarini tinglash, undan to'g'ri xulosa chiqara olish

qobiliyatlarini rivojlantirish orqali; turli vositalar bilan va eng asosiysi yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) yondashish va tinimsiz izlanishlar natijasida erishish mumkin

Xulosa qilib aytganda, sog'lom avlodni voyaga yetkazishda ijtimoiy-ekologik vaziyatning ta'siri, demografik holatni muvofiqlashtirishning o'ri kabi masalalar va sog'lom turmush tarzi – barkamol yosh avlodni tarbiyalash omillaridan biri ekanligi bilan bir qatorda sog'lom avlod tarbiyasida millarlararo hamjihatlikning o'ri ham muhim hisoblanadi.

Jismoniy va ma'naviy sog'lom farzand ota-onaning baxti. Ertasini o'ylagan xalq, farzandlari sog'ligi va tarbiyasiga ustuvor vazifa sifatida qaraydi. Buni O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan betimsol ishlar va uning ulkan natijalari oynadek ko'rsatib turibdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan O'zbekistonning bu boradagi boy tajribasi ko'plab davlatlar uchun namuna sifatida tavsiya etilgani ham bejiz emas. Zero, inson bor ekan, farzand dunyoga keladi, farzand tug'ilar ekan, uning o'ziga xos quvonchu - shirin tashvishlari ham bo'ladi. Balki inson hayotining mazmuni shudir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2018-yil 28-dekabr)
2. NATIONAL VALUES OF PRESCHOOL CHILDREN BASICALLY FORMING EDUCATIONAL AND MORAL QUALITIES ZZ Yakubova European International Journal of Pedagogics 3 (01), 65-70
3. Y.Z Zikirovna EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL TRADITIONS Conference Zone, 257-262
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Iqtisod-moliya".2010.
5. Sodiqova.Sh.A. —Maktabgacha pedagogikal. T:. —Tafakkur sarchashmalaril, 2013